

# **TTPU va “ONESEC” kompaniyasi o’rtasida o’zaro anglashuv memorandumi imzolandi**

Joriy yilning 13-iyun kuni, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti moliyaviy-iqtisodiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori Jaloliddin Yusupov va “ONESEC” kompaniyasi direktori Dmitriy Paleev ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda imzolangan o'zaro anglashuv memorandumida tomonlar TTPU talabalarini amaliyatga jalb etish, yoshlardan o'rtasida hamkorlikda ommaviy tadbirlar, tanlovlardan, ilmiy-texnika oromgohlari, xakaton va festivallarni o'tkazish bo'yicha kelishuvga erishildi. O'zbekistonda STEM ta'limi rivojlantirish doirasida, TTPU talabalari va bitiruvchilarining amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari, shuningdek, mahorat darslari va mehmon ma'ruzalarini o'tkazish bo'yicha loyihalarni birgalikda amalga oshirishga kelishib olindi. Bu esa yoshlarning axborot xavfsizligi sohasiga qiziqishini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.



